

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР .....	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI .....	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР .....	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI .....	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....	37-42

## **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУФУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ .....	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ .....	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI .....	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH .....	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ .....	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ .....	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ .....	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI .....	120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ..... 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 133-138

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Alimova Shahniza Hamidovna*

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА ..... 139-147

*Asrakulova Adiba Nabieva*

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ ..... 148-154

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA ..... 155-160

*Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ..... 161-165

*Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi*

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ..... 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ..... 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ..... 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ..... 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ..... 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadreddinovna*

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI ..... 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) ..... 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES ..... 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloevna*

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI ..... 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION .....	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS .....	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT .....	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI .....	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS .....	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS .....	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA .....	276-282

## **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI .....	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ .....	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI .....	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI .....	305-309

## **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI .....	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI .....	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

<b>CLASSROOM .....</b>	<b>322-326</b>
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI .....	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI .....	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI .....	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI .....	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR .....	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI .....	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA .....	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH .....	389-393

**Xadjamuratova Matlyuba,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI**

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lurma bolalarni ijtimoiy himoya qilishga davlatning innovatsion yondoshuvning dolzarbliji, barkamol avlod tarbiyasida maktabgacha ta'limning o'rni masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lum, nodavlat, xususiy sheriklik, xorijiy tajriba, inklyuziv, intellektual.

---

**Khadjamuratova Matlyuba,**  
Associate Professor of Andijan State Medical Institute,  
PhD in history

## **ECO-STABILITY OF AN INNOVATIVE APPROACH TO SOCIAL PROTECTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION**

**Abstract.** The article highlights the relevance of the state's innovative approach to the social protection of children in preschool education, the role of preschool education in raising a mature generation.

**Key words:** preschool education, non-state, private partnership, foreign experience, inclusive, intellectual.

---

**Хаджамуратова Матлюба,**  
Доцент Андижанского государственного  
медицинского института, доктор исторических наук

## **ЭКОСТАБИЛЬНОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА К СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Аннотация.** В статье подчеркивается актуальность инновационного подхода государства к социальной защите детей в дошкольном образовании, роль дошкольного образования в воспитании зрелого поколения.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, негосударственное, частное партнерство, зарубежный опыт, инклюзивное, интеллектуальное.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N02>

**Kirish.** Mustaqillik yillarda barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta'lum-tarbiya berishda uzlucksiz ta'lum tizimini rivojlantirish borasida qator islohotlar olib borildi. Bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilib, uning jismonan sog'lom va yetuk o'sib ulg'ayishi, samarali ta'lum-tarbiya olishi uchun zamon talablari darajasidagi maktabgacha ta'lum tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi, milliy qadriyatlarimiz inobatga olinib, mukammal tizim yaratildi.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi[1], – deb ta'kidlaydi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Buni inobatga olib, qomusimizning 50-moddasida: -davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi[2], deya mustahkamlangan.

Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan[3]. Haqiqatda bola atrof-muhitga moslashish asnosida yoshiga qarab bosqichma-bosqich ma'lumot yig'ib, har narsani bilib olishga ishtiyoqi kuchayadi. Dastlab oilada ota-onasi (vasiy), yaqinlari yordamida, so'ng maktabgacha ta'lim muassasasida beriladigan e'tibor uning dunyoqarashini shakllanishida muhim ahamiyatga kasb etadi. Shu sababli respublika qonunchiligidagi maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki pog'onasi hisoblanadi. Bolani ta'lim va tarbiya tizimiga moslashib, jamiyat bilan ilk mustaqil faoliyatini olib borishida, tartibli muloqot tizimi qoidalari asosida ongida dastlabki bilimlarni shakllantirishda maktabgacha ta'lim muhim o'rinni egallaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi[4] vazifasini bajaradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limning vazifasi bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat qo'yishini o'stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iborat[5].

1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham ta'lim turlarining boshlang'ich bo'g'ini sifatida "maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi"[6], — deb belgilandi.

Sog'lig'ida muammosi bo'lgan, maktabgacha ta'lim muassasasiga bora olmaydigan nogiron bolalarni tarbiyalash va sog'ligini tiklash maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalarini, shu o'rinda internat-uylarini tashkil etishga ruxsat berildi. Agar nogiron bolalarga ta'limning boshqa turlari qatori maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim va tarbiya berish imkoniyati bo'limgan taqdirda, ularga uyida ta'lim, tarbiya berish choralarini ko'rildi. Ularni qarovchisi bo'lgan ota-onsi (vasiy)idan biriga moddiy ta'minot hamda imtiyozlar berildi.

Shuningdek, vasiy o'z vasiyligidagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya olishi uchun sharoit yaratib berish majburiyati ham qonunchilikda yuklatildi.

2017-yilda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil[7] etdi. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda davlat siyosatining innovatsion yondashuvi natijasida boshqaruva tizimida institutsional islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar) lardagi bo'limlari, Kuzatuv kengashlari tashkil etildi[7] va asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'naliishlari

belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish huquqi berildi.

Maktabgacha ta'lim tizimining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirishga e'tibor kuchaytirildi, pedagog kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi, ya'ni oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'naliشida maktabgacha ta'lim bo'g'iniga pedagoglarni tayyorlashning qabul kvotalari oshirilib, ularning o'qish muddati 4 yildan 3 yilga o'zgartirildi. Shuningdek, zamonaviy ta'limning ilg'or yutuqlarini tatbiq etish orqali bolalarni maktabga tayyorlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Ushbu maqsadda hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan birgalikda xorijiy tajribadan kelib chiqib va mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda 60, 135, 160, 235 va 385 o'rinci zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining namunaviy loyihalari ishlab chiqildi[8].

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida[9]gi Prezident qarori asosida Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Ushbu sohada nodavlat ta'lim muassasalarini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yilishi maktabgacha ta'lim muassasalarini sonini oshishiga imkoniyat yaratdi. "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatlari maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"[10] tasdiqlandi.

Ma'lumotlariga ko'ra, "O'zbekistonda 7 104 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (ulardan 5 604 tasi (79 foiz) — davlat, 63 tasi — idoraviy va 1 437 tasi (21 foiz) — nodavlat tashkilotlardir)"[10] faoliyat yuritgan.

2017-2018-yillarda 752 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari filiallari negizida yuridik shaxs maqomiga ega to'laqonli maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilingan. 3-7 yoshdag'i bolalarning umumiy sonidan (2,5 mln) 932 310 nafari (37,7 foiz), shundan shaharlarda 500 236 nafari (20,2 foiz) va qishloq joylarda 432 074 nafari (17,4 foiz) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan[10]. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdag'i har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi[10]. Ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 7 104 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (ulardan 5 604 tasi (79 foiz) — davlat, 63 tasi — idoraviy va 1 437 tasi (21 foiz) — nodavlat[10] tashkilotlar) faoliyat yuritgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun

sharoitlar yaratishdan iborat. Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik subyektlariga berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish, ushbu tizimdagи tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar faol qo'llanilmoqda[10].

2019-yil 16-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli qonuni kuchga kirdi. Respublikada maktabgacha ta'lim-tarbiya olish kafolatlangan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilanganidek, har bir bola umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga kirishidan 1 yil avval maktabgacha ta'lim tashkilotida 1 yillik majburiy tayyorlarlikdan o'tishi belgilangan.

Bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta'minlanadi[10].

Mazkur qonun uzluksiz ta'limni boshlang'ich bo'g'inini rivojlantirishda oqilona yondashuv mahsuli bo'lib, unda:

- birinchidan, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari;
- ikkinchidan, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy yo'nalishlari;
- uchinchidan, bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari;
- to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar, ularning vakolatlari;
- beshinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari;
- oltinchidan, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish qoidalari;
- yettinchidan, maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasining faoliyati;
- sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani takomillashtirish hamda ushbu jarayon qatnashchilarining huquq, majburiyatları;
- to'qqizinchidan, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish tartibi kabi huquqiy asoslar belgilandi.

Maktabgacha ta'lim ijtimoiy siyosatdagi dolzarb masalalardan biridir. Islohotlarni ko'lамини kengaytirish, ushbu tizimga bolalarni bosqichma-bosqich to'la qamrab olish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari belgilangan:

- umumiylurdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;
- qo'shma turdag'i maktabgacha ta'lim tashkiloti[11].

Yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham maktabgacha ta'limga alohida mas'uliyat bilan yondashishga erishildi, ushbu ta'lim turini bola tarbiyasida asosiy bo'g'inni egallashi sababli unga bo'lgan talab ham ortganligini ko'rsatadi. Qonunga ko'ra, Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[12].

Maktabgacha yoshdagagi nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan zarur reabilitatsiya va abilitatsiya qilish choralari amalga oshiriladi[13]. Qonunga ko'ra, agar nogironligi bo'lgan bolalar sog'ligining holati tufayli maktabgacha ta'lim muassasasida vaqtincha o'qiy olmasalar, davlat ta'lim dasturlari asosida ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qishiga imkoniyat yaratiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar sog'lom bolalar singari ta'limning barcha turlaridan foydalanish huquqiga ega. Ehtiyoj tug'ilgandagina ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi mumkin.

**Natijalar va muhokama.** Sarhisob natijasida davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish ishlarini jadallashtirish hamda ushbu sohaga xususiy sektorni kengroq jalg etish orqali maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish maqsadida 2018-2019-yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1 412 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolanganligi, ulardan 1 097 tasi bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratilganligi, 74 tasi bo'yicha bitimlar bekor qilinganligi, 241 tasi bo'yicha moliyaviy manbalar mavjud bo'lmaganligi sababli bugungi kungacha kreditlar ajratilmaganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Maktabgacha ta'lim vazirligi va Moliya vazirligining 2018-2019-yillarda imzolangan hamda bugungi kunga qadar moliyalashtirilmasdan qolgan 241 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlarga kredit mablag'larini bosqichma-bosqich ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi[14].

Shuningdek, 2021-yil 1-maydan boshlab boquvchisini yo'qotgan ayollar farzandlarining ota-onalar badali to'lovlarini tegishli hududdagi 9 soatlik davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan miqdorlarda qoplab berish, boquvchisini yo'qotgan ayollar farzandlarini bepul o'qitish[13] imtiyozlari yaratildi.

Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalg qilish sust bo'lgan tumanlarda ham bu ishni paysalga solmay tezlashtirish, qamrov darajasini kengaytirish maqsadida maktabgacha davlat tashkilotlari bilan birga nodavlat sektorini ulushini kengaytirish, ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar uchun zarur sharoitlar yaratish chora-tadbirlari ko'rildi.

2021-2022-yillarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Moliya vazirligiga Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 100 million AQSh dollari miqdorida mablag'lar[15] ajratildi.

Demak, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki muhim bo'g'ini hisoblanib, uni takomillashtirishning institutsional tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Bolalarni ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlanishini uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlarini ta'minlash hamda bolalarni maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash maqsadida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan birga maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektori faoliyatini rivojlantirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashning tashkiliy-huquqiy choralari ko'rildi.

## Adabiyotlar/Литература/References

- Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, Ўзбекистон. 2021. – Б. 222.
- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги таҳрирда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б. 13.
- Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2008. – Б. 53.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги қонуни. 16.12.2019. ЎРҚ-595-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 27.04.2021 й., 03/21/685/0373-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.
5. Таълим тўғрисида. 02.07.1992. ЎРҚ. 636-XII-сон. // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 342-модда; 1993 й., 6-сон, 268-модда.
6. Таълим тўғрисида. 29.08.1997. ЎРҚ. 464-I-сон. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 03/18/456/0512-сон; 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон.
7. Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 30.09.2017. ПФ-5198-сон. / <https://lex.uz/docs/3362886>
8. 2018 йилда мактабгача таълим муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш манзилли дастури тўғрисида. 02.07.2018. ПҚ-3822-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.07.2018 й., 07/18/3822/1436-сон.
9. Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 30.09.2018. ПҚ-3955-сон. / <https://lex.uz/docs/3923110>
10. Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. 08.05.2019. ПҚ-4312-сон. / <https://lex.uz/uz/docs/4327235>
11. Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида. 18.06.2020. ЎРҚ-595-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 27.04.2021 й., 03/21/685/0373-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.
12. Таълим тўғрисида.. 24.09.2020. ЎРҚ. 637-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.
13. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг хуқуqlари тўғрисида. 15.10.2021. ЎРҚ-641-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.10.2020 й., 03/20/641/1389-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 07.06.2022 й., 03/22/775/0477-сон.
14. Мактабгача таълим соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 12.04.2021. ПҚ-5071-сон. // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.04.2021 й., 07/21/5071/0319-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.06.2022 й., 06/22/150/0516-сон.
15. Худудларда мактабгача таълим хизматларини кенгайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 27.05.2021. ПҚ-5125-сон. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.05.2021 й., 07/21/5125/0503-сон, 02.11.2021 й., 07/21/5272/1010-сон.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº S/2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).